

Date: 27th October-2025

SUDYANING ISHIDA ISHTIROK ETISHIGA MONELIK QILADIGAN HOLATLAR

Odilov Nozimjon Jumanazar o'g'li

odilovnozimjon216@gmail.com

Mehnat va Ijtimoiy Munosabatlar Akademiyasi o'qituvchisi

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan sudyaning sud ishida ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlarning huquqiy mazmuni va amaliy ahamiyati yoritiladi. Sudya faoliyatidagi xolislik, mustaqillik va beg'arazlik tamoyillari tahlil qilinib, ularning jinoyat protsessida adolatli sudlovni ta'minlashdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, sudyaning ilgari jinoyat ishida boshqa protsessual rol (tergovchi, prokuror, himoyachi va boshqalar) sifatida ishtirok etgani, qarindoshlik aloqalari mavjudligi yoki xolislikka shubha tug'diruvchi holatlar yuzasidan rad etish zarurati yuridik asoslarda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu norma sud tizimining qonuniylik va adolat prinsiplarini amalda ro'yobga chiqaruvchi muhim kafolat sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: sudya, rad etish, xolislik, beg'arazlik, manfaatlar to'qnashuvi, adolatli sudlov, jinoyat protsessi.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligini ta'minlash masalasi eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki har bir jinoyat ishining adolatli ko'rilishi, sud qarorining qonuniyligi va fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchi, avvalo, sudyaning xolisligi va beg'arazligiga bog'liqdir. Shu bois, Jinoyat-protsessual kodeksining 76-moddasida belgilangan sudyaning sud ishida ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlarni huquqiy jihatdan o'rganish va amaliyotda to'g'ri qo'llash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur modda sudyaning har qanday manfaatdorlik yoki tarafkashlik ehtimolini bartaraf etish, jinoyat ishlarini hal etishda adolat, qonuniylik va inson huquqlariga hurmat tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan. Amaliyotda ayrim hollarda sudyalilar ilgari shu ishda boshqa protsessual rol — masalan, tergovchi, prokuror, himoyachi yoki guvoh sifatida qatnashganligi, yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan qarindoshlik aloqalari mavjudligi sababli, sud qarorlari ustidan e'tirozlar keltirilmoqda. Bu esa sud jarayonining xolisligiga shubha tug'diradi va fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, JPK 76-moddasida nazarda tutilgan cheklovlar — sudya bir ishni turli instansiyalarda ko'rishda qatnasha olmasligi, manfaatdorlik shubhasiga sabab bo'ladigan holatlarda rad etilishi kabi qoidalar — adolatli sudlov tizimini shakllantirish, sud hokimiyatining obro'sini mustahkamlash va fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan ishonchini oshirish uchun zarurdir. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, u nafaqat nazariy-huquqiy



Date: 27th October-2025

ahamiyatga, balki sud amaliyotining barqarorligi va adolatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi va usullari: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 76-moddasida belgilangan sudyaning sud ishida ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlarni huquqiy jihatdan tahlil qilish, ularning sud hokimiyati mustaqilligi va xolisligini ta'minlashdagi o'rni hamda amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ushbu tadqiqotning maqsadi shuningdek, sudya xolisligiga shubha tug'diruvchi holatlarning huquqiy oqibatlarini aniqlash, ularni amaliyotda to'g'ri talqin qilish, xalqaro huquq standartlari bilan qiyoslash va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: JPK 76-moddasi mazmunini tahlil qilish va undagi protsessual cheklovlarning maqsadini aniqlash; sudya faoliyatidagi xolislik va beg'arazlik prinsiplarining nazariy asoslarini yoritish; sudyaning manfaatdorlik holatlari yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish bo'yicha amaliy mexanizmlarni o'rganish; xorijiy davlatlar tajribasida sudya rad etilishining huquqiy tartibini o'rganish va O'zbekiston qonunchiligi bilan qiyoslash; amaldagi milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot davomida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi: Normativ-huquqiy tahlil metodi – JPKning 76-moddasi va unga bog'liq huquqiy normalar mazmuni chuqur o'rganildi; Qiyosiy-huquqiy tahlil – sudya xolisligi bilan bog'liq xalqaro huquq normalari (xususan, Yevropa inson huquqlari konvensiyasi 6-moddasi, BMTning sud mustaqilligi tamoyillari) bilan milliy qonunchilik qiyoslandi; Tizimli yondashuv – sud hokimiyati mustaqilligi, sud nazorati va adolatli sudlov tamoyillari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi; Mantiqiy va tahliliy metod – mavjud qonun normalari va sud amaliyotidagi holatlar asosida xulosalar chiqarildi; Empirik (amaliy) tahlil – sud ishlarini yuritish jarayonida sudya rad etilishi bilan bog'liq misollar tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy-uslubiy ahamiyati: Tadqiqot ishida ko'rib chiqilgan muammolarning dolzarbligiga, xulosalar va takliflarning asoslantirilganlik darajasiga qarab tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati belgilanadi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda bayon etilgan qoidalar va xulosalardan tergov sohasidagi qonunchilik normalarini va huquqni qo'llash amaliyoti mexanizmini takomillashtirishda, ushbu sohada davlat tomonidan tartibga solish sohalarining oqilona nisbatini topishda foydalanilishi mumkin.

Xulosa: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 76-moddasi sud tizimida adolat, xolislik va qonuniylik tamoyillarini amalda ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim protsessual norma hisoblanadi. Mazkur modda sudyaning sud ishida ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlarni aniq belgilab, sud qarorlarining tarafkashliksiz, qonuniy va odilona qabul qilinishini kafolatlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sudya ilgari ishda tergovchi, prokuror, himoyachi, jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida ishtirok etgan, shuningdek, ishda qatnashuvchi shaxslar bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo'lgan holatlar sud jarayonining xolisligiga shubha tug'diradi. Shu sababli, bunday vaziyatlarda sudya o'z xohishi bilan rad etilishi yoki taraflar tomonidan rad etish kiritilishi zarur.



Date: 27th October-2025

Mazkur norma shuningdek, bir ishni turli sud instansiyalarida ko‘rishda sudyaning qayta ishtirok etishini taqiqlash orqali sud mustaqilligi va qarorlarning xolisligini ta‘minlaydi. Bu — jinoyat ishlarining har bir bosqichida yangi va mustaqil sud tarkibi tomonidan qaror qabul qilinishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, sudya xolisligi tamoyilining buzilishi sud qarorining haqiqiylikiga, sud tizimiga bo‘lgan ishonchga, eng muhimi — adolatli sudlov huquqiga putur yetkazadi. Shu sababli, mazkur modda amaliyotda qat’iy rioya etilishi, sud organlarida sudyalarni rad etish institutining samarali ishlashi, shuningdek, bu sohada xalqaro standartlarga mos me‘yorlarni yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, JPK 76-moddasining to‘liq va izchil qo‘llanilishi sud hokimiyati mustaqilligi, inson huquqlarining ishonchli himoyasi va fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini ta‘minlashda asosiy huquqiy kafolatlardan biri hisoblanadi.

